

# Loyiha oldi va loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash uchun

14658-sonli SHARTNOMA

Samarqand shahri.

«15» aprel 2022yil.

Samarqand viloyati hokimligi Injinerlik kompaniyasi (Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) direktor A.U.Ilmuratov bir tomondan, «Maroqand Bunyodkor Qurilish» MChJ (keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) direktori A.I.Davlatov ikkinchi tomondan, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan quyidagi shartnomani tuzdilar:

## 1. MODDA

### Shartnoma mavzusi va tuzilishi.

1.1. Buyurtmachi ko'rsatma beradi va "Bajaruvchi" "Samarqand viloyati Payariq tumanidagi "Xo'ja Ismoil" MFY "Xartang" qishlog'ida ichimlik suv tarmog'i va suv inshooti qurilishi" ob'yekti uchun loyiha oldi va loyiha-smeta hujjatlarini (ekologiya, topo-xarita va ishchi loyiha)ni amalga oshirish ishlarini o'z zimmasiga oladi: "Korxonalar va bino va inshootlarning kapital qurilishi uchun loyiha hujjatlarini tuzish, ishlab chiqish, tasdiqlash tartibi" (SHNQ)1.03.01-20 yil va boshqa meyoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

1.2. O'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 37-bo'limi, O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik subektlari faoliyatining huquqiy asoslari to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 apreldagi PQ-847-son «Loyiha-tadqiqot tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 maydagi "Kapital qurilishda loyiha va qurilish ishlarini amalga oshirish tartibini optimallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-5445-sonli farmoniga asosan, "Ob'yektlarni shartnomaviy joriy narxlarida qurish bo'yicha loyiha-qidiruv ishlari harajatlari tartibi to'g'risidagi" nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 9 sentyabrda 3180 raqami bilan ro'yxatga olingan va ushbu shartnoma, bajaruvchi ushbu ishlarni, amaldagi qurilish kodekslariga va qurilish ishlariga va qurilish ishlari uchun loyiha hujjatlarini tuzish, kelishish va tasdiqlash tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq bajaradi va tugatadi.

1.3. Ushbu shartnomaning ajralmas qismi quyidagilardan iborat:

- Loyiha-qidiruv ishlari smetasi; - Loyiha ishlarining taqvim jadvali;

1.4. Belgilangan tartibda tasdiqlangan loyiha topshirig'i ishchi loyihani ishlab chiqish uchun asosdir.

1.5. Alohida bosqichlarni loyihalash ishlarining nomi va muddati ishchi loyihani berish uchun taqvim jadvali bilan belgilanadi.

1.6. Shartnoma tomonlardan biri tomonidan ishlab chiqilgan va shartnoma loyihasi imzolagan taraf boshqa tomonga yuboradi. Shartnoma loyihasini kontengentga yuborish shartnoma tuzish taklifidir.

1.7. Agar kelishuv loyihasi bo'yicha kelishmovchiliklar mavjud bo'lsa, tomonlar 3 kun ichida ularni hal qilish choralarini ko'radilar.

1.8. Ushbu shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan qo'shimcha bitimda batafsil bayon etiladi.

1.9. Ushbu shartnomaning shartlari ikkala tomon uchun ham majburiydir va ularning roziligi bilan o'zgartilishi mumkin.

## 2 MODDA

### Tomonlarning majburiyatlari.

#### 2.1. Bajaruvchining majburiyatlari:

2.1.1. Tasdiqlangan loyiha topshirig'iga, buyurtmachining qurilish normalari va qoidalari va ushbu shartnomaning shartlarida belgilangan tartibda taqdim etilgan dastlabki qarorlarni berish uchun taqvim jadvaliga muvofiq ishlarni bajarish.

2.1.2. Shartnoma imzolagandan va qurilish normalari va qoidalari, shuningdek ushbu shartnoma shartlari bilan belgilangan topshiriq uchun dastlabki materiallarni olgandan keyin ishchi loyihani ishlab chiqadi.

2.1.3. Buyurtmachi yozma ravishda taqdim etilgan iltimosiga binoan loyiha hujjatlarini ishlab chiqishni to'xtatib turadi va davom ettiradi.

2.1.4. Loyihaviy-smeta hujjatlarni barcha manfaatdor tashkilotlar bilan (Arxitektura Bosh boshqarmasi, DSENM, gaz, elektr va boshqalar) shu qatorda davlat nazorati organlari bilan muvofiqlashtiriladi.

2.1.5. Ishchi loyihani ishlab chiqishda buyurtmachining davlat nazorati, vakolatli organlarning muloxazalarini inobatga olish va ishchi loyihani ishlab chiqishda o'z vaqtida kerakli o'zgartirishlarni kiritadi.

2.1.6. Bajaruvchining aybi turlari ishchi loyihasini ishlab chiqishda xatolar va noto'g'ri hisob-kitoblar aniqlangan taqdirda bajaruvchi loyihalash hujjatlaridagi barcha kamchiliklarni o'z xisobidan bajaradi.

2.1.7. Belgilangan vaqtda ushbu shartnomaning kalendar jadvaliga binoan buyurtmachiga ekspertiza xulosasi uchun loyiha-smeta hujjatlarini taqdim etadi.

2.1.8. Ishlab chiqilayotgan loyiha bo'yicha sharxlar bilan davlat ekspertiza xulosalarini berishda, bajaruvchi tegishli tuzatishlar kiritadi (sharxlarni bekor qiladi) va yakuniy davlat ekspert xulosasi olish uchun loyiha-smeta hujjatlarini qayta taqdim etadi.

- 2.1.9. Buyurtmachi davlat nazorati organlari tomonidan amalga oshirilgan barcha tuzatishlar va ishchi loyiha materiallarga davlat ekspertizasi o'tkazilgandan so'ng bajaruvchi tugallangan loyiha-smeta hujjatlarini 3 nusxada chop etilgan va elektron versiyasini buyurtmachiga belgilangan tartibda taqdim etadi.
- 2.1.10. Bajaruvchi, "Buyurtmachidan" kamchiliklarni tuzatish to'g'risida yozma so'rov olgan kundan boshlab 10 ish kuni ichida yozma javob yuborishi shart.
- 2.1.11. QMQ 1.03.07.2010 ga muvofiq (dala nazorati xaftasida 3 marotaba) ob'yektda dala nazorati bilan ta'minlash va yozma ravishda ko'rsatma berishi shart.
- 2.1.12. Buyurtmachining birinchi so'roviga binoan tegishli mutaxassislarni ob'yektga yuborish va ish paytida loyiha topshirig'i ishlarida yuzaga kelgan muammolarni hal qilish.
- 2.1.13. Bajaruvchi shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni buyurtmachining rozilgisiz uchinchi shaxslarga topshirishga xaqli emas.
- 2.1.14. Bajaruvchi shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni tanlov natijasida ko'rsatilgan muddatlardan kechikmasdan buyurtmachiga LSX ni topshirish.
- 2.1.15. Ishchi loyiha bajaruvchidan olingan kundan boshlab 1 kundan kechiktirmay davlat ekspertizasiga topshirish va ekspert xulosasini olish jarayonida kamchiliklar bo'lgan taqdirda oz muddatda kamchiliklarni bartaraf qilib ekspertizaga qayta topshirib ijobiy xulosasini olish. Ijobiy olingan ekspertiza xulosasiga ko'ra ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha ob'ekt qiymati eng kam ish xaqqining 6.000 (olti ming) baravaridan ko'proq tashkil etgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKdan ham ijobiy xulosa olish.

## **2.2. Bajaruvchi quyidagi huquqlarga ega:**

- 2.2.1. Buyurtmachining oldindan yozma rozilgisiz ishlarning bir qismini (loyihalashtirish va ilmiy-tadqiqot ishlarining maxsus turlari loyihalarni amalga oshirishda turli xil maslahat yordami va boshqalar) bajarish uchun xo'jaliklararo subpudratlarni tuzish, subpudrat shartnomalarni tuzish bajaruvchi ushbu shartnoma bo'yicha o'ziga yuklatilgan javobgarlikdan ozod qilmaydi.
- 2.2.2. Buyurtmachining aybi tufayli to'lovlar kechiktirilgan bo'lsa va loyihalash uchun loyiha oldi manbali materiallar taqdim etilmagan bo'lsa mutaxassislarning mavjud ish yukini hisobga olgan holda loyihaviy qarorlarni bosqichma-bosqich berish jadvalini ko'rib chiqish, ishchi loyiha ishlab chiqishning yangi muddatini belgilash va ushbu kunlarni hisoblamalik va qolgan majburiyatlarni buyurtmachi bilan kelishib olish.
- 2.2.3. Shartnoma majburiyatlarini muddatidan oldin bajarish.

## **2.3. Buyurtmachining majburiyatlari:**

- 2.3.1. Loyihalashtirish boshlanishidan oldin bajaruvchi tomonidan hisoblangan yuklarni loyiha oldi hujjatlarini o'z vaqtida yetkazib berish sharti bilan loyiha tuzish uchun zarur bo'lgan dastlabki ma'lumotlarni beradi.
- 2.3.2. Ishchi loyiha bajaruvchidan olingan kundan boshlab 1 ish kuni ichida ishni qabul qilish va qabul qilish dalolatnomasiga imzo chekish yoki yozma izohlar bilan qaytarib berishni ko'rib chiqish.
- 2.3.3. Bajaruvchiga shartnomada ko'zda tutilgan hajm va shartlarda ishlarni bajarishda yordam berish.
- 2.3.4. Bajaruvchining ishi sifatini kuzatib borish kamchiliklar to'g'risida o'z vaqtida xabar va tuzatishni talab qilish.
- 2.3.5. Mahalliy davlat ekspert xulosalarini ishchi loyiha sharxlari bilan berganda u davlat ekspertizasi sharxlarini tuzatish uchun ishchi loyiha bajaruvchiga yuboradi.
- 2.3.6. Bajaruvchi tuzatilgan ishchi loyiha olgandan so'ng uni yakuniy ekspert xulosasi olish uchun davlat ekspertizasiga topshirish.
- 2.3.7. Buyurtmachi, Bajaruvchidan tegishlilik bo'yicha yozma so'rov olgan kundan boshlab 3 ish kuni ichida yozma javob yuboradi.
- 2.3.8. Olingan ishchi loyihadan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanish.
- 2.4. Bajaruvchi tuzilgan shartnomaga asosan, tuzatilgan ishchi loyiha Buyurtmachi olgandan so'ng uni yakuniy ekspert xulosasi uchun davlat ekspertizasiga topshirish.

## **3 MODDA**

Shartnomaning qiymati va ishlarni moliyalashtirish shartlari.

3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Loyihachi" tomonidan bajariladigan ishlar, Etender.uzex.uz portalidagi elektron e'lonidagi tanlov natijasida aniqlangan 2022 yil "08" apreldagi **(60247-sonli tanlov bo'yicha xarid komissiyasining Bayotnomasi)** bilan tasdiqlangan loyiha oldi va loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash ishlarining qiymati, mualliflik nazorati bilan birga smeta bo'yicha **118 800 000 (Bir yuz o'n sakkiz million sakkiz yuz ming) so'mni QAS** bilan birga tashkil etadi va 16 kun muddatda loyiha smeta xujjatlarini tayyorlab buyurtmachiga topshiradi.

3.2. Buyurtmachi loyiha-qidiruv ishlari uchun shartnomaning umumiy qiymatidan 30 foizi miqdorida avans (bo'nak) to'lab beriladi. Amalda bajarilgan loyiha ishlarining qolgan 70 foizi bajarilgan ishlar dalolatnomasi tuzilib tasdiqlanganidan boshlab to'lab beriladi.

3.3. Buyurtmachi tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizasi uchun tulanadigan tulovlarni tulashni o'z zimmasiga oladi.

3.4. Shartnoma bo'yicha ish qiymati quyidagi hollarda o'zgartirish mumkin:

- Loyiha-smeta hujjatlari yoki unga kiritilgan o'zgartirishlar belgilangan tartibda qayta tasdiqlanganda;
- buyurtmachining tashabbusi bilan ish to'xtatilganda;
- shartnoma tomonlarning kelishuviga binoan.

#### 4 MODDA

##### Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi.

4.1. Ishchi loyihaning ishlab chiqilgan bo'limlarini qabul qilish va baholash loyihalash topshirig'i talablariga va jadval shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

4.2. Ish to'liq hajmda tugagandan so'ng, "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga barcha hisob-fakturalar va bajarilgan ishlar bo'yicha dalolatnomalari ko'rsatilgan holda uch nusxada (shu jumladan: chop etilgan, elektron variantda) ishchi loyihaning to'plamini yuboradi.

4.3. Ishchi loyihani qabul qilish to'g'risidagi dalolatnoma olingan kundan boshlab 5 ish kuni ichida amaldagi narxlarda smeta bilan to'liq hajmda qabul qiladi.

- loyihani loyiha bo'limida qabul qiladi;

- taqdim etilgan ishlarni bajarish dalolatnomaga imzo qo'yadi;

- ushbu shartnoma shartlariga muvofiq to'lovlarni to'laydi;

- Bajaruvchi bajarilgan ishning dalolatnomasini yoki sabablarini ko'rsatgan holda ishni qabul qilishdan bosh tortish to'g'risida ogohlantirib hujjatlarni yuboradi.

4.4. Bajarilishi zarur bo'lganligi sababli, bajarilgan ishlarni qabul qilishni asosli ravishda rad etgan taqdirda, "Buyurtmachi" kelishilgan vaqt ichida ikki tomonlama dalolatnoma tuzadi, unda zarur tuzatishishlarni asosli ro'yxati va ularni bajarish muddatlarini ko'rsatib, tasdiqlash uchun "Bajaruvchi"ga yuboriladi.

4.5. Agar ishchi loyihani ishlab chiqish jarayonida sabliy natija paydo bo'lishining muqarrarligi va kelgusida loyihalash jarayonining maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 3 ish kuni ichida uning to'xtatib turishi to'g'risida xabardor qilishlari va 5 ish kuni ichida loyihagini qayta ishlab chiqishni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki yo'nalishlarini ko'rib chiqishlari shart.

#### 5 MODDA

##### Tomonlarning javobgarligi.

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik uchun, bajaruvchi va buyurtmachi, (boshqa holatlar uchun yetkazilgan zararni qoplamaslik holatlaridan tashqari) barcha holatlarda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar. ("Tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatining shartnomaviy huquqiy asoslari to'g'risida" va amaldagi boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan me'yoriy hujjatlar asosida).

5.2. Loyiha-smeta hujjatlarini o'z vaqtida tayyorlash uchun Bajaruvchi, Buyurtmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,4% miqdorida jarima to'laydi, ammo jarimaning umumiy miqdori bajarilmagan ish qiymatining 50 foizidan oshmaslik kerak.

5.3. Hisob-faktura va sertifikatlar bo'yicha loyihalash ishlarining 100% tayyorligi va yetkazib berilganligi vaqtida to'lanmagan taqdirda, "Buyurtmachi" kechiktirilgan har bir kun uchun bajarilgan ishlar qiymatining 0,4% miqdorida jarima to'laydi, ammo kechiktirilgan to'lov miqdorining 50%dan oshmasligi lozim.

5.4. Ushbu shartnomaning 3-bo'lim 3-bandida nazarda tutilgan shartnomaning umumiy miqdori, ob'yekt bo'yicha manzilli dastur tasdiqlangandan so'ng shartnomaga o'zgartirish kelishuv asosida o'zgartiriladi.

5.6. Mazkur shartnoma bo'yicha barcha to'lovlar loyiha smeta hujjatlarini qabul qilish dalolatlarini tuzulib tasdiqlanganidan so'ng to'laydi.

5.7. Agar bajarilgan ishda (bosqichlarda) nuqsonlar aniqlansa, bajaruvchi ularni bepul bartarf etishga majburdir. Agar bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar loyihalash topshirig'i, texnik shartlar bo'yicha standartlarga javob bermasa, buyurtmachi ishlarni, xizmatlarni qabul qilishdan va to'lovni to'lashdan bosh tortishga haqli (sifati yo'qolgan jismoniy hajmlar), ishlar va hk), agar ish, xizmatlarni sifatini talab qilishga haqli.

5.8. Shartnoma manfaatdor tomonlar tomonidan shartnomaga muvofiq mulkiy va nomulkiy xususiyatga ega bo'lgan barcha masalalarni hal etilgandan keyingina tugatilishi mumkin, bu haqda boshqa tomonni bir oy ichida yozma ravishda ogohlantiradi.

5.9. Ushbu kelishuv bilan bog'liq barcha kelishmovchiliklar, muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Agar kelishuvga erishilmasa, bu tomon hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sudi tomonidan hal etiladi.

5.10. Agarda bajaruvchi (shyihachi) tomonidan ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlaridagi ish turlari va xajmlari bilan tender (tanlov) ga taqdim etilgan ish hajmlari o'rtasidagi aniqlangan tafovut bo'yicha vujudga kelgan moliyaviy zararni bajaruvchi (loyihachi) tomonidan yetkazilgan zarar to'liq qoplab beriladi.

**6 MODDA**  
**Shartnoma muddati.**

6.1. Ushbu shartnoma ikki tomondan imzolanganidan va g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin qonuniy kuchga kiradi.

6.2. Shartnoma bitta moliyaviy yil uchun 2022 yil 31 dekbrgacha amal qiladi.

6.3. Shartnomaning amal qilish muddati uning majburiyatlarini bajarilishi uchun taraflarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

6.4. Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan uch nusxada tuzilgan bo'lib, ulardan biri Buyurtmachida, biri Bajaruvchida biri G'aznachilik bo'limiga taqdim etiladi.

**7 MODDA**  
**Qo'shimcha shartlar.**

7.1. Tomonlar o'zaro bitim asosida shartnomani bekor qilishga haqlidirlar.

7.2. Qayta ro'yxatdan o'tkazish, qayta tashkil etish yoki buyurtmachi yoki bajaruvchining maqomida boshqa o'zgarishlar yuzaga kelgan taqdirda, ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar ushbu qayta ro'yxatdan o'tkazish, qayta tashkil etish natijasida hosil bo'lgan yuridik shaxsga o'tkazishi mumkin.

**8 MODDA**  
**Fors-major holatlari.**

8.1. Tomonlar ushbu shartnomada qabul qilingan majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin, agar bu fors-major holatlari (tabbiy hodisalar, yong'in, toshqin, zilzila, tabbiy ofat, falokat, portlashlar va boshqa fors major holatlari) bo'lsa, ushbu holatlar shartnoma bajarilishiga bevos ta ta'sir ko'rsatadi.

**9 MODDA**  
**Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari.**

9.1. Yuridik manzil yoki xizmat ko'rsatuvchi bank o'zgargan taqdirda, tomonlar uch kun ichida bir-birlarini yozma ravishda xabardor qilishlari shart.

**Bajaruvchi:**

**Nomi:** « Maroqand Bunyodkor Qurilish » MCHJ  
**Manzili:** Samarqand sh. Ko'ksaroy maydoni 1, 1-blok «V» 1-qavat.  
**Bank nomi:** Toshkent sh., AT "Aloqabank" bosh ofisi  
**H/r:** 20208000804841414001  
**MFO:** 00401  
**STIR:** 301327746  
**OKONX:** 7110  
**Telefon:** (+998 93) 720-06-19

**Direktor**  **A. Davlatov**

**Nomi:** Moliya vazirligi Gaznachiligi, Samarqand viloyat g'aznachilik boshkarmasi  
**X/R:** 23402000300100001010  
**Bank nomi:** Markaziy bank XKKM Toshkent shaxar boshqarmasi  
**Manzil:** Sam.shahar Ko'ksaroy maydoni №1  
**STIR (INN):** 201 122 919  
**MFO:** 00 014  
**OKONX:** 97 160  
**Tel:** 233-68-53, 231-11-52

**Buyurtmachi:**

**Nomi:** Samarqand viloyat hokimligi Injining kompaniyasi.  
**Manzili:** Samarqand sh. Ko'ksaroy maydoni 2 uy  
**Bank nomi:** Markaziy bank Toshkent shaxar Bosh boshkarmasi XKKM  
**Sh/r:** 301121860184017063201018015  
**MFO:** 00014  
**STIR:** 201212655  
**IFUT:** 70220  
**Tel:** 66-231-10-93; 66-235-47-97

**Direktor**  **A.U. Ilmuratov**

**Yurist**  **B. Xolbekov**

Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun  
\_\_\_\_\_ -sonli smeta

Obyekt nomi: «Samarqand viloyati Payariq tumanidagi "Xo'ja Ismoil" MFY "Xartang" qishlog'ida ichimlik suv tarmog'i va suv inshooti qurilishi uchun loyixa oldi va loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chiqish»

T/p	Ob'yekt nomi	Asos	Loyiha qiymati ming so'mda	Qiymat ming so'mda
1	2	3	4	5
1.	" Samarqand viloyati Payariq tumanidagi "Xo'ja Ismoil" MFY "Xartang" qishlog'ida ichimlik suv tarmog'i va suv inshooti qurilishi uchun loyixa oldi va loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chiqish"  <b>Dastlabki qurilish qiymati 4 400 000 000 so'm</b>	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2019 yil 9-sentyabrdagi № 3180-sonli ro'yxatdan o'tazilgan buyrug'i O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirligining 2019 yil 19 avgustdagi "Loyiha-tadqiqot ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizomi tasdiqlash haqida"gi 396-son buyrug'i 3-ilovasiga asosan K=3,608 pasaytiruvchi koefisient K=0,76042029 O'z.Res.V.M. №496-sonli qarori 33 bandan 33.1 bandiga asosan: II-toifa	4400000000/*2,70 *0,807	95 822 000
2		ART		1 673 000
3		Texnik shart		80 000
4		Ekologiya		2 025 000
5		Gidrogeologiya		2 200 000
6		geologiya		5 000 000
7		Topo-xarita		12 000 000
	<b>Loyiha qiymati jami :</b>			<b>118 800 000</b>

Smeta bo'yicha jami: 118 800 000 (Bir yuz o'n sakkiz million sakkiz yuz ming) so'm QQS bilan birga:

Bajaruvchi:

«Maroqand Bunyodkor Qurilish» MChJ direktor



A.I.Davlatov


Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun  
\_\_\_\_\_ -sonli Ishlarni bajarish grafigi

Obyekt nomi: “Samarqand viloyati Payariq tumanidagi "Xo'ja Ismoil" MFY "Xartang"  
qishlog'ida ichimlik suv tarmog'i va suv inshooti qurilishi uchun loyixa oldi va loyixa-smeta  
xujjatlarini ishlab chiqish”

No	Shartnoma bo'yicha ishning nomi va uning bajarilish bosqichlari	Ishning bajarilish vaqti
1	2	3
1	Ichimlik suvi tarmog'ini tortish	3 kun
2	Tashqi elektr ta'minoti	3 kun
3	Topo-xarita	4 kun
4	Bosh plan	2 kun
5	Smeta	4 kun
<b>Jami:</b>		<b>16 kun</b>

Bajaruvchi:

«Maroqand Bunyodkor Qurilish» MChJ direktor



A.I.Davlatov



**“ТАСДИҚЛАЙМАН”**  
Самарқанд вилоят ҳокимлиги  
Инжиниринг компанияси  
директори  
\_\_\_\_\_ А.Илмуратов

\_\_\_\_\_ 2022 йил

**Самарқанд вилояти Пайариқ туманидаги "Хўжа Исмоил" МФЙ "Хартанг" қишлоғида ичимлик сув тармоғи ва сув иншооти қурилиш объекти бўйича танлов ўтказиш бўйича комиссия йиғилиши  
БАЁНИ № \_\_\_\_\_**

Самарқанд ш.

12 апрел 2022 йил

**Комиссия раиси** - К.Хамидов -Директор ўринбосари

**Комиссия котиби:** - Ш.Махматов - Компания “Молиялаштириш ва маркетинг ва манзиллий дастурларни тайёрлаш” бўлими бош мутахассиси

**Комиссия аъзолари:**

- С.Курбанов - Компания бош муҳандиси
- А.Сафаров - “Лойиҳаларни бошқариш ва қурилишни техник кузатиш” бўлими бошлиғи;
- А.Қодиров - “Бирламчи руҳсат берувчи, лойиҳа ва танлов ҳужжатларини тайёрлаш” бўлими бошлиғи;
- Ф.Шакарров - “Лойиҳаларни бошқариш ва қурилишни техник кузатиш” бўлими бош мутахассиси;
- И.Холбоев - “Молиялаштириш ва маркетинг ва манзиллий дастурларни тайёрлаш” бўлими бошлиғи;
- Ж.Қиличев - “Танлов савдоларини ташкил этиш ва ҳўжалик шартнома муносабатлари” бўлими бошлиғи;

### **КУН ТАРТИБИ:**

Самарқанд вилояти Пайариқ туманидаги "Хўжа Исмоил" МФЙ "Хартанг" қишлоғида ичимлик сув тармоғи ва сув иншооти қурилиш объектининг лойиҳа олди ва лойиҳа смета ҳужжатларини тайёрлаш бўйича

---

(К.Хамидов, С.Курбанов, А.Сафаров, А.Қодиров, Ф.Шакарров, И.Холбоев, Ж.Қиличев)

Компания томонидан 2022 йил 30 мартда Ўзбекистон Республикаси Товар ва хом-ашё биржасининг (<https://etender.uzex.uz>) электрон порталига Самарқанд вилояти Пайариқ туманидаги "Хўжа Исмоил" МФЙ "Хартанг" қишлоғида ичимлик сув тармоғи ва сув иншооти қурилиш объектининг лойиҳа олди ва лойиҳа смета ҳужжатларини тайёрлаш №60247-лот рақами билан эълон жойлаштирилди. Мазкур лот бўйича 2022 йил 08 апрелдаги энг яхши таклифларни танлаш савдосини ўтказиш бўйича давлат харидлари

комиссиясининг электрон портали орқали шаклланган Самарқанд вилояти Пайарик туманидаги "Хўжа Исмоил" МФЙ "Хартанг" қишлоғида ичимлик сув тармоғи ва сув иншооти қурилиш объектнинг лойиҳа олди ва лойиҳа смета ҳужжатларини тайёрлаш баённомасига асосан эълон якунига кўра комиссия аъзолари томонидан «MAROQAND BUNYODKOR QURILISH» МЧЖ ғолиб деб топилганлигини инобатга олиб,

### ҚАРОР ҚИЛИНДИ:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги "Давлат харидлари тўғрисида"ги 684-сонли Қонунининг 62-моддаси 3-бандига асосан комиссия баённомаси давлат харидлари электрон тизимига муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди. Икки иш куни давомида давлат харидлари электрон тизимига жойлаштирилган баённома бўйича ҳеч қандай эътирозлар ёки қўшимча таклифлар келиб тушмаганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

2. Компания "Танлов савдоларини ташкил этиш ва хўжалик шартнома муносабатлари" бўлими (Ж.Қиличев) юқоридагилардан келиб чиқиб, комиссия аъзоларининг 2022 йил 08 апрелдаги электрон баённомасига асосан ғолиб «MAROQAND BUNYODKOR QURILISH» МЧЖ билан қонунчиликда ўрнатилган тартибда шартнома тузилсин.


3. Компания "Бирламчи рухсат берувчи, лойиҳа ва танлов ҳужжатларини тайёрлаш" бўлими (А.Қодиров) объектнинг лойиҳа олди ва лойиҳа-смета ҳужжатларини сифат даражасида топширилишини назорат қилинсин.

### Йиғилиш баёни тўғри тузилган деб ҳисоблаб комиссия аъзолари:

Хамидов К.



Холбоев И.




Қурбонов С.



Ж.Қиличев



Шакаров Ф.



Қодиров А.



Сафаров А.



Комиссия котиби: Ш.Махматов

